

Ingliz tili darslarida audiovizual materialdan foydalanishning afzalliklari

Muradov Utkir Nurillayevich
utkurnurillayevich@gmail.com

Dotsent

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda audiovizual materialdan foydalanishning ahamiyati va afzalliklarini tahlil qiladi hamda til o'rgatishda qanday samarali ishlashini ko'rsatadi. Unda mavzuga oid yondashuvlar va talabalarning qiziqishlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etishiga oid metodik qarashlar tahlil qilinadi. Ingliz tili o'qitish sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan birga, talabalarga til o'rganishni samarali va qiziqarli qilish uchun innovatsion metod va vositalardan foydalanishning ahamiyati oshib bormoqda. Audiovizual materiallar, ya'ni audio, video va interaktiv resurslar, ingliz tilini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Til ko'nikmalari, tinglab tushinish, qiziqish, motivatsiya, bilim, metod, texnologiya.

Преимущества использования аудиовизуального материала на уроках английского языка

Мурадов Уткир Нуриллаевич
utkurnurillayevich@gmail.com

Доцент

Ташкентский государственный педагогический университет

Аннотация. В данной статье анализируется важность и преимущества использования аудиовизуального материала при изучении иностранного языка и показывается, насколько он эффективен при обучении языку. Анализируются подходы к теме и методические взгляды на важность учета интересов студентов. Наряду со стремительным развитием современных педагогических технологий в области преподавания английского языка возрастает важность использования инновационных методов и средств, позволяющих сделать изучение языка эффективным и интересным для студентов. Аудиовизуальные материалы, то есть аудио, видео и интерактивные ресурсы, играют важную роль в изучении английского языка.

Ключевые слова: Языковые навыки, понимание на слух, интерес, мотивация, знания, метод, технология.

Advantages of using audiovisual material in english lessons

Muradov Utkir Nurillayevich
utkurnurillayevich@gmail.com

Associate professor

Tashkent state pedagogical university

Abstract. This article analyzes the importance and advantages of using audiovisual material in foreign language learning and shows how it works effectively in language teaching. It analyzes approaches to the topic and methodological views on the importance of taking into account the interests of students. Along with the rapid development of modern pedagogical technologies in the field of English language teaching, innovative methods and tools are needed to make language

learning effective and interesting for students. the importance of use is increasing. Audiovisual materials, i.e. audio, video and interactive resources, play an important role in learning English.

Key words: Language skills, listening comprehension, interest, motivation, knowledge, method, technology.

Raqamli texnologiyalar asrida, ya'ni jamiyat shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda talabalarga zamon talabiga mos ta'lim berish va yetarlicha sharoitlar yaratish uchun turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xorijiy tillarni o'rgatishda yangi metodlar va pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga olib kelmoqda. O'qituvchilar va talabalar uchun samarali dars jarayonini tashkil etish, nutq faoliyati turlarini (tinglab tushinish, gapirish, o'qish va yozuvni) rivojlantirish uchun turli xil manbaalardan foydalanish, jumladan audiovizual materiallar muhim ahamiyatga ega. Ushbu materiallar aynan ingliz tilini o'rganishni nafaqat qiziqarli, balki samarali ham qiladi. Bugun deyarli barcha ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar, kompyuter xonalari, lingafon bilan jihozlangan auditoriyalar, smart televizorlar mavjud bo'lib, ushbu texnik jihozlar o'z navbatida talabalarning bilimlarini rivojlantirish uchun audiovizual materiallardan foydalangan holda darslarni tashkil etishga va til ko'nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarorida mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil yetish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy yetish, xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarini, xalqaro testlar va ularni joriy qilish uchun tegishli ruxsatnoma va litsenziyalar, xorijiy tillarni o'rgatishga qaratilgan kontentlarni mualliflik huquqlarini xarid qilish, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratish kabi masalalar alohida ta'kidlab o'tilgan (Mirziyoyev, 2021).

O'rganish nazariyalari va usullari til o'qitishda qo'shimcha audiovizual materiallardan foydalanish konsepsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu nazariyalarda til o'rgatishda audiovizual materiallardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar va ularning til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liqligi batafsil ko'rib chiqiladi. Kommunikativ tilni o'rgatish so'nggi paytlarda til o'qitishning mashhur usullaridan biridir. Ushbu yondashuvda asl materiallardan foydalanishga katta e'tibor beriladi. O'qituvchilarga kommunikativ tillarni o'qitish jarayonida turli xil audiovizual materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Materiallar asosan haqiqiy bo'lganligi sababli, darsni qiziqarli qilish uchun sinfda rasm va videolardan foydalanishning keng doirasi mavjud. Odatda, sinf faoliyati haqiqiy muloqot bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga asoslanadi. Natijada, talabalarga yo'nalish berish uchun xarita, biron bir joy yoki shaxsni tasvirlash uchun rasm va boshqa turli xil ko'rgazmali vositalar ko'rsatiladi.

Ilm-fan texnologiya sohasiga katta hissa qo'shdi, bu esa bizning hayotimizni oson va qulay bo'lishiga xizmat qildi. Hayotning barcha sohalariga texnologiyalarning keskin inqiloblari ta'sir ko'rsatdi. Albatta, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasi bundan mustasno emas. Hozirgi kunda o'qituvchilar o'z darslarida an'anaviy texnologiyalardan farqli va samarali bo'lishi uchun turli xil gadjetlardan foydalanmoqdalar. Bu esa xorijiy tillarni kompyuter texnologiyalari yordamida o'rganishning imkoniyatlarini kengaytirdi. Multimedia vositalari va proyektorlarning mavjudligi tufayli o'qituvchilar uchun til o'qitishda innovatsiyalar olib borish osonroq bo'ldi. Qolaversa, so'nggi paytlarda til o'qitishda texnologiyadan samarali foydalanish tufayli elektron ta'lim ommalashmoqda (Ilkhamova I., Muradov U., Damirova G., Khudoyberdiyeva Z., 2024).

Audiovizual materiallardan foydalanish o'qituvchilarga darslarni yanada samarali va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi. O'qituvchilar turli xil audio, video va prezentatsion materiallar yordamida

darslar uchun ilhom olishlari mumkin. Buning natijasida talabalarga ko‘proq moslashtirilgan, interaktiv va qiziqarli o‘quv jarayonlari taqdim etiladi. O‘qituvchilar uchun materiallar tayyorlash ham osonlashadi, bugun internetda ko‘plab onlayn platformalar va resurslar mavjud.

Audiovizual materiallar talabalarga tilni faqat nazariya asosida emas, balki amaliyotda, real hayotda qanday ishlatilishini ko‘rsatadi. Bunga quyidagilar kiradi:

- **Videoroliklar va filmlar:** Real hayotdagi suhbatlar va madaniyatlar orqali tilni mukammal o‘rganish imkonini yaratadi.

- **Audio materiallar:** Musiqalar, podkastlar va tinglab tushinish mashqlari, talaffuz va tinglab tushinish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- **Prezentatsiyalar va infografikalar:** Vizual materiallar orqali talabalarga yangi so‘zlarni o‘rganish va xotirada eslab qolishni osonlashtiradi.

- **Onlayn platformalar:** Interaktiv o‘quv ilovalari va video darslar orqali talabalar tilni faol o‘rganishni ta‘minlaydi.

Audiovizual materiallarning ingliz tilini o‘qitishdagi afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Masalan:

Motivatsiyani oshirish. Audiovizual materiallar talabalarga tilni o‘rganishda yangi va qiziqarli usullarni taklif etadi. Talabalar, ayniqsa, yosh avlod, vizual va tinglab tushinish materiallari orqali ko‘proq qiziqish va diqqatni jalb qiladi. Filmlar va videoroliklar talabalar til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi, chunki ular o‘rgangan so‘zlarni va iboralarni real hayotdagi kontekstlarda eshitishlari mumkin.

Til ko‘nikmalarini rivojlantirish. Audio-vizual materiallar til o‘rganishning barcha komponentlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi:

- **Tinglab tushinish ko‘nikmasi:** Audio fayllar va videolar orqali talabalar o‘z talaffuzini yaxshilashlari mumkin. Ushbu materiallar real hayotdagi talaffuzni, aksentlarni va urg‘ularni o‘rganishda yordam beradi.

- **Gapirish ko‘nikmasi:** Talabalar videolardagi matnlarni eshitib, o‘z nutqlarini takrorlash orqali talaffuzlarini rivojlantirishi mumkin.

- **O‘qish va yozuv ko‘nikmalari:** Prezentatsiyalar va videolar orqali yangi so‘zlar, grammatik konstruksiyalar va iboralar o‘rgatiladi. Vizual materiallar talabalarga yangi ma‘lumotlarni yodlashni osonlashtiradi.

Madaniyatlararo muloqotni o‘rganish. Ingliz tili o‘qitish jarayonida talabalarga tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Filmlar va videoroliklar orqali talabalar ingliz tili mamlakatlarning madaniyati, an‘analari va hayot tarzi haqida ma‘lumot olishadi. Ushbu ma‘lumotlar talabalarga tilni nafaqat so‘zlashuv nuqtai nazaridan, balki ijtimoiy kontekstda, real hayotdagi vaziyatlarda qanday ishlatilishini ko‘rsatadi.

Yuqorida ta‘kidlangan jihatlarni chuqur mushohada qiladigan bo‘lsak, audiovizual materiallar asosida o‘qitish turli ma‘lumotlarga yondashish imkonini beradi. Bunday materiallar yordamida talabalar bir vaqtning o‘zida bir nechta omillardan foydalanib til o‘rganadilar. Bu esa, o‘z navbatida, talabalar tilni mukammal, tez va samarali o‘rganishga yordam beradi.

Ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda video materiallardan foydalanish samarali vositaga aylandi. Hozirgi kunda internet imkoniyatlari va turli texnologiyalarning mavjudligi til o‘qituvchilarining ishini osonlashtirdi. O‘qituvchilar Internetdan talabalar uchun mos bo‘lgan turli xil videolarni yuklab olishlari mumkin. Til o‘rgatish uchun mo‘ljallangan minglab tayyor videolar mavjud bo‘lgani uchun o‘qituvchilar o‘z ehtiyojlariga ko‘ra osongina tanlashlari mumkin. Videolar turli yo‘llar bilan til o‘rgatishni osonlashtirishi mumkin. Talabalarga munozara uchun g‘oyalarni yaratishga yordam beradi. Darsni yanada interaktiv va samarali qiladi. Kontent bilan bog‘liq videolardan foydalanish talabalarga g‘oyalarni kontseptsiyalashga va ushbu mavzu bo‘yicha chuqur fikrlashga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalar videolarda kontekstli tildan foydalanishga va tilning og‘zaki bo‘lmagan xususiyatlariga e‘tibor qaratishlari mumkin, bu ularga tildan maqsadli foydalanishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, videolardan foydalanish talabalarga mavzu bo‘yicha ma‘lumotlarni bashorat qilish, xulosa qilish va tahlil qilish imkonini beradi.

Videoni tomosha qilish orqali talabalar til muloqoti dinamikasini boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

So'nggi paytlarda til o'qitishda turli xil audiovizual materiallar qo'llanilayotganligi sababli, qo'shiqlar ham talabalar uchun foydalidir. Musiqa talabalarning tashvish darajasini pasaytirish uchun juda muhim bo'lgan dam olish muhitini yaratishga yordam beradi. Tashvish yangi tilni o'rganishda to'siq bo'lib, o'rganishning maksimal holatini ta'minlaganligi sababli, buni bartaraf etish kerak. Til o'rgatish darsida mashg'ulotlarni loyihalashda qo'shiqlar o'qituvchilar uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Qo'shiqlardan deyarli barcha til ko'nikmalarini o'rgatishda foydalanish mumkin. Biroq, ayniqsa tinglab tushinish faoliyatida qo'shiqlar til o'qituvchilari uchun yaxshi manbadir. Qo'shiqlar o'qituvchilarga talabalarga turli xil tadbirlarni ishlab chiqishlari mumkin bo'lgan til ma'lumotlarini taqdim etishga ko'maklashadi. U talabalar e'tiborini osongina jalb qilishi mumkinligi sababli, talabalar boshqa materiallarga qaraganda ko'proq e'tiborli bo'ladi va topshiriq bilan samarali shug'ullanadilar. Qo'shiqlar orqali talabalarning lug'at boyligini oshiradi va tilning keng doirasi taqdim etiladi. Natijada, o'qituvchilar uchun nuqtalar o'rnini to'ldirish, to'g'ri javobni topish, talabalarning qo'shiqlarni tushunishlarini tekshirish uchun qisqa savollar kabi turli xil tadbirlarni ishlab chiqish osonroq bo'ladi. Bu esa talabalarning tinglab tushinish qobiliyatini tekshirishning samarali usuli hisoblanadi. Qo'shiqlar talabalar uchun ham qiziqarli, chunki ular buni o'yin-kulgi orqali o'rganish deb bilishadi. Bundan tashqari, qo'shiqlardan nutq darsining oldingi topshirig'ida foydalanish mumkin. Talabalardan qo'shiqni tinglagandan so'ng, das mavzusini tushunganliklarini so'rash mumkin. Ular sinfda ijro etilgan qo'shiq haqida fikr yuritishadi. Shunday qilib, qo'shiqlar talabalar nutqini rivojlatirishning samarali usuli bo'lishi mumkin.

Til o'rgatishning zamonaviy tizimida o'qituvchilar uchun yana bir muhim yordamchi vosita Power Point slaydlari hisoblanadi. Prezentatsiyalardan foydalanish barcha fanlar o'qituvchilari orasida ommalashdi. Ushbu vosita jozibali taqdimotlar va audiovizuallashtirilgan uskunalar bilan o'qitishni yanada dinamik bo'lishiga olib keldi. Boshqa tomondan, ba'zi odamlar Power Point slaydlari har doim ham o'qitish uchun foydali emas deb hisoblashadi. Ma'lumotlarning ko'pligi taqdimotchi va talaba o'rtasida chegarani o'rnatishi mumkin, chunki taqdimotchi talabalarga qaraganda slaydlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Taqdimot ko'nikmalari so'nggi paytlarda muhim vositalardan biridir, chunki ingliz tilini o'rganishdan maqsad samarali muloqotni saqlab qolishdir. Biroq, boshqalar oldida gapirish unchalik oson emas. Taqdimot qilish har bir kishi uchun doimo qiyin vazifa sanaladi. Lekin agar ma'ruzachilarning oldida qandaydir yordamchi vositalar bo'lsa, ular uchun ma'ruza qilish osonroq bo'ladi. Taqdimotda Power Pointdan foydalanish so'nggi paytlarda ancha ommalashib ketdi. Multimedia vositasi hisoblangan proyektorlar, kompyuterlar va smart televizorlarning mavjudligi o'qituvchilar uchun mashg'ulotlarni samarali bo'lishini ta'minladi. Slaydlardan foydalanish talabalarga darsga jiddiy e'tibor qaratishga yordam beradi, chunki ularning oldida mavzuga oid vizual ma'lumotlar mavjud. Taqdimot vositalari til o'qituvchilari orasida ham ommalashdi. O'qituvchilar taqdimotlardan foydalangan holda o'quv materiallarini darsda vizual tarzda taqdim etishlari mumkin. Natijada, dars talabalar uchun qiziqarli bo'ladi va ularda mashg'ulotga qiziqish uyg'otadi va dars sifati yuqori darajada faollashadi.

Til o'rgatishda rasmlardan foydalanish ham hozirgi kunda keng tarqalgan usullardan biriga aylandi. Rasmlar xorijiy tillarni o'rgatish darslarida samarali va qo'shimcha manbaa hisoblanadi. Darslarda turli xil rasmlardan foydalanish mashg'ulotni qiziqarli va interaktiv qiladi. Bu esa talabalarga dars mazmunini chuqurroq tasavvur qilishda yordam beradi. Bundan tashqari, u talabalarni diqqatli bo'lishga va topshiriqlarga jiddiy yondashishga undaydi hamda talabaning fahmlash va tushinib yetish qobiliyatini yaxshilaydi. Talabalarga har qanday mavzuni tanishtirish uchun rasmlardan foydalanilsa, u yanada real va kontekstual bo'ladi. Talabalar mavzu haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ladilar va berilgan topshiriq orqali o'z g'oyalarini yaxshiroq ishlab chiqishi mumkin. Audiovizual materiallardan foydalanish til o'rganishni an'anaviy darsliklardan foydalanishga qaraganda mazmunliroq qiladi. Rasmlar minglab so'zlarni ifodalashi mumkin va bu usul og'zaki ma'ruza qilishdan ko'ra samaraliroqdir.

Audiovizual materiallar o'qituvchilarga sinf muhitini, shuningdek, o'qitish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirishga yordam beradi. Sinfda audiovizual vositalardan foydalangan holda, o'qituvchilar mavzuni og'zaki va vizual tarzda taqdim etishlari mumkin. Bu esa talabalarning darsga ko'proq e'tibor berishlari va mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun foydalidir. Ular og'zaki va og'zaki bo'lmagan, shuningdek, mavhum va konkret masalalar o'rtasida korrelyatsiya qilishlari mumkin. Tilda og'zaki tushuntirish qiyin bo'lgan ba'zi mavhum jihatlar mavjud. Mavzu talabalarga tushunarsiz bo'lishi va ular o'qituvchi nimani nazarda tutayotganini tushunishga qiynalishlari mumkin. Biroq, turli ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda, o'qituvchilar mavzuni talabalarga yaxshiroq tushuntirishlari mumkin. Agar og'zaki va vizual materiallar birgalikda taqdim etilsa, talabalar tezda ma'lumot olishadi. Audiovizual materiallar til

o'qituvchilariga o'qitishni osonlashtirishga yordam bersa-da, bu hech qanday kamchiliklar yo'qligini anglatmaydi. Ba'zan, audiovizual materiallarni tanlash samarasiz bo'lsa, u foydasiz bo'lishi mumkin. Asosiy kamchiliklar - bu xarajat, noqulaylik, texnik xizmat ko'rsatish va ba'zi hollarda texnologiyadan foydalanishdan qo'rqish hisoblanadi. Bu holatda yana bir muhim masala - o'qituvchi videodan foydalanish bo'yicha yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Aks holda, bu talabalar uchun zerikarli va maqsadsiz bo'lib qoladi.

Nutq faoliyati turlaridan yana bir muhim qismi bu o'qish bo'lib, u til o'rganish qobiliyatlaridan biridir, ayniqsa talabalar uchun, chunki ular butun akademik hayoti davomida ko'plab darsliklar va materiallarni o'qishlari kerak. Biroq, talabalar odatda o'qishni yoqtirmaydilar. Natijada til o'qituvchilarining vazifasi qiyinlashadi. Agar o'qituvchi o'qishni ko'rgazmali qurollar bilan qiziqarli qila olsa, talabalarni o'qishga jalb qilishlari mumkin. O'qishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'p jihatdan foydali bo'ladi va talabalarda o'qishga qiziqish uyg'otadi. Rasmlar, videolar va proyektorlar kabi turli ko'rgazmali qurollar talabalarga matnning mavhum g'oyalarni tushunishga yordam beradi. Ko'rgazmali qurollar talabalar va matn o'rtasida yaxlit aloqani o'rnatadi. Ko'rgazmali qo'llanmalar orqali talabalar matnga ko'proq qiziqish bildiradilar.

Gapirish tilni kommunikativ usul bilan o'rgatish va o'rganishda muhim qobiliyat sanaladi. Ilgari til o'rganish deganda o'sha tildagi adabiyotlarni o'qishni o'rganish nazarda tutilgan edi. Biroq, bu tushuncha yillar davomida o'zgardi. Hozirgi vaqtda til o'rganish boshqalar bilan muloqot qilish ehtiyojiga asoslanadi. Odamlar boshqalar bilan muloqot qilish uchun yangi tilni o'rganadilar. Til o'rganishda nutq qobiliyatiga maksimal darajada ustunlik beriladi. Bu til o'rganuvchilar uchun qiyin vazifalardan biridir. Ulardan xorijiy tilda gapirishni so'rashganda, noto'g'ri gapirib qo'yishim mumkin deb o'zlarini noqulay his qilishadi. Talabalar aksariyati til o'rganishning dastlabki bosqichida asabiylashadi. Og'zaki nutqni o'rgatuvchi o'qituvchilar uchun talabalarni nutqqa undash qiyin vazifa sanaladi. Sinfda talabalarni og'zaki nutqqa undashning ko'plab usullari mavjud. Ko'rgazmali qurollar va qo'llanmalardan foydalanish bu muammoning eng yaxshi echimlaridan biridir. Audiovizual materiallardan to'g'ri foydalanish og'zaki nutqni o'rgatuvchi o'qituvchilariga katta yordam beradi. Ko'rgazmali qurollar har doim talabalar e'tiborini osongina o'ziga jalb qilishi mumkin. Sinfda tegishli ko'rgazmali qurollardan foydalanilsa, talabalar darsda oson va qulay, shuningdek, diqqatli bo'lib qoladilar. Ular o'zlarining qiziqishlari va tanlovlariga mos keladigan vizual narsalarni ko'rganlarida, bu haqda o'z fikrlarini bildirishga ishtiyoq bilan kirishadilar. Ko'rgazmali qurollardan ma'lum ma'lumotlarni olishlari natijasida darsda o'zaro muloqotga kirish osonlashadi (Kathirvel, K. and Hashim, H., 2020).

Talabalar taqdimotlarda faol ishtirok etishlari kerak. Taqdimotni boshlashdan oldin o'qituvchi doskaga taqdimot haqida bir nechta asosiy savollarni yozadi, shunda talabalar uning mazmuni bilan tanishadilar. Savollarni ko'rib chiqqandan so'ng, talabalar savollarga og'zaki javob berishadi yoki talabalar ko'rish paytida eslatma olishlari mumkin. Batafsilroq tushunish uchun talabalarga ko'rgazmali topshiriqlar taqdim etiladi va ularga tilning o'ziga xos tafsilotlari yoki xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Shuni yodda tutish kerakki, talabalar darajasini hisobga olish va texnikani ularning darajalariga moslashtirish kerak.

Yozuv nutq faoliyatining muhim jihatlaridan biridir. Hozirgi vaqtda talabalarni yozma nutqni rivojlantirish uchun turli jozibali ko'rgazmali qurollardan foydalanilmoqda. Bunda o'qituvchi talabalarni ijodiy yondashuvga va tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Bu esa o'rgatishning an'anaviy usulidan ko'ra samaraliroq bo'ladi. Turli video rolik va filmlar ko'rsatilib talabalardan ular to'g'risida o'z fikrlarini yozma bayon etish talab etiladi Bundan tashqari, rasmlar talabalarni hikoya yozishga undash uchun foydali bo'lishi mumkin. O'qituvchilar ba'zan ijodiy qo'llanma sifatida rasmlardan foydalanishadi. Talabalarga o'zlarining oldida turgan kamida uchta tasvirdan foydalanib, hikoya o'ylab topishlarini yoki ularga ma'lum bir mavzu bo'yicha suhbat o'tkazishni talab qilishlari mumkin. Bunda ular suhbatning turli bosqichlarida o'z fikrlarini bayon etadi. Yozuv faoliyatining bu turi guruh bo'lib yozishda mos keladi. Yakka tartibda ishlashdan ko'ra, talabalar kichik guruhlarda ishlashlari afzalroqdir. Bu ularga ko'proq ishonch va qiziqish uyg'otadi va guruhdagi shaxslar tomonidan bir nechta g'oyalarni muhokama qilish imkonini beradi.

Tinglab tushinishni o'rgatish til o'qituvchilari uchun qiyin vazifalardan biridir. Aksariyat hollarda odamlar tinglashning muhimligini anglamaydilar. Shuning uchun ham til o'rgatishda bu ko'nikma ilgari e'tibordan chetda qolar edi. Biroq, texnologiya rivojlanishi bilan til o'qituvchilarining vazifasi osonlashdi. Hozirgi vaqtda talabalarga xorijiy tillarni o'rganish uchun turli xil audiovizual materiallar mavjud. O'qituvchilar bir necha daqiqada talabalar malaka darajasiga qarab mavzuga oid tinglab tushinish materiallarini internetdan yuklab olishlari mumkin. Bugungi kunda tinglab tushinish malakasini o'rgatishda audiovizual materiallardan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Hatto zamonaviy talaba mustaqil ravishda ham til o'rganish uchun turli audiovizual materiallardan osongina foydalanishi mumkin. Audio materiallar

talabalarga maqsadli ravishda tilning to'g'ri talaffuzi haqida tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. Agar o'qituvchilar darsda videolarni tinglash materiallari sifatida ishlatasa, talabalar xorijiy tilni o'rganishda juda muhim bo'lgan nolingvistik xususiyatlar haqida bilishlari mumkin. Til o'rgatishdagi turli texnologiyalar yordamida o'qituvchilar talabalarni o'z ona tilida so'zlashuvchi til sohiblarining nutqi va talaffuziga ko'niktirishlari mumkin. Turli xil audio va video materiallar til o'qituvchilari uchunkasbiy vazifasini osonlashtirdi. **Tinglab tushinishni o'rgatishdan oldin o'qituvchilar darsda o'tmoqchi bo'lgan dars uchun to'g'ri reja tuzishlari kerak.** Avvalo, kerakli materiallar va jihozlar tayyor bo'lishi zarur. Shuningdek, materiallar talabalarining malaka darajasiga qarab tanlanishi lozim. Agar o'qituvchi qiziqarli materiallarini tanlasa, talabalar uni jon qulog'i bilan tinglashga va faol bo'lishga intilishadi. O'qituvchilar psixolog va murabbiy rolini o'ynashi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilar tinglab tushinish mashqlarini boshlashdan oldin aniq ko'rsatmalar berishlari kerak. Agar talabalar matnni tinglashdan maqsad va vazifalarni bilsalar, ular diqqatini jamlab tinglash bilan shug'ullanadilar. O'qituvchi tinglab tushinish mashqlarini boshlashdan oldin barcha talabalar nima qilishlari kerakligini tushuntirishlari talab etiladi. **Tinglab tushinish qobiliyatini eng yaxshi audiovizual materiallardan foydalanish orqali rivojlantirish mumkin.** Tinglab tushinish til o'rganishning eng yaxshi va samarali usulidir. Yaxshi tinglovchi yaxshi notiq bo'lishi mumkin. Talabalar individual ravishda mashq qilishlari va interaktiv ta'lim uchun juftlikda ishlashlari mumkin. To'g'ri talaffuzni o'rganish uchun bir vaqtning o'zida matnni o'qishlari va matnning audio versiyasini tinglashlari mumkin. Yakkama-yakka va juftlikda turli xil mashqlarni bajarish orqali barcha to'rtta til ko'nikmalarini mashq qilish mumkin. Audiovizual materiallar ba'zi talabalarni nima va qanday aytishlarini tinglashga o'rgatishda yordam beradi. Ular talaffuzlarini audiodagi to'g'ri versiya bilan solishtirganda, farqlarni seza boshlaydilar va bu ma'lum vaqt ichida talabaga ingliz tilini yaxshiroq tinglab tushinish va talaffuz qilishga yordam beradi.

Lug'at til o'rganishning muhim qismidir. Til yordamida boshqalar bilan muloqot qilish uchun suhbatdosh biror bir tilning so'zlarini bilishi lozim. Shuning uchun til o'rgatishda avvalo lug'at muhim ahamiyatga ega. Lug'atni maxsus kontekstda o'rgatish kerak, shunda talabalar so'zlarni eslab qolishlari osonroq bo'ladi va ular o'z muloqotlarida so'zlardan samarali foydalanishlari mumkin. Ayniqsa, ko'rgazmali qurollar talabalarining so'z boyligini oshirishda yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi. Agar talabalar faqat og'zaki ma'noni anglatuvchi yangi so'zni eshitsalar, u uzoq vaqt davomida esda qolmasligi mumkin. Ammo lug'atlar illustratsiya va turli rasmlar bilan taqdim etilsa, u yanada samarali bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar o'qituvchiga o'qitilayotgan va taqdim etilayotgan ma'lumotga urg'u berishga yordam beradi. Aniq ko'rgazmali qurollar talabalarining tushinish qobiliyatini oshiradi. Vizual vositalar taqdimotga ta'sir qiladi va qiziqish uyg'otadi. Ular hayajon uyg'otishi va talabalarga bir vaqtning o'zida bir nechta his-tuyg'ulardan foydalanishga imkon berishi mumkin (Jalolov J., Mahkamova G., Ashurov Sh., 2015).

Darsda audiovizual vositalardan foydalanish uchun ba'zi omillarni hisobga olish kerak. Agar materiallar oqilona tanlanmasa, maqsadga erishib bo'lmaydi. Ba'zida audio yoki videoning til darajasi talabalar uchun mos kelmasligi mumkin. Natijada, materiallar ular uchun qiyin va tushunarsiz bo'lib, talabalarining o'ziga ishonchsizlik darajasini oshirishi mumkin. Ba'zan yangi o'rganuvchilar uchun o'z darajasiga mos audio materiallarni topish qiyin bo'ladi. Agar audiovizual materiallar mazmunga aloqador bo'lmasa, ular talabalarni chalg'itishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar o'z talabalari uchun audiovizual materiallarni tanlashda ehtiyot bo'lishlari kerak.

Dars jarayonida o'qituvchilar turli xil audiovizuallardan foydalanganda til o'rgatish qiziqarli bo'lishi olimlar tomonidan aniqlanib o'z tasdig'ini topdi. Turli xil rang-barang audiovizual materiallardan foydalanilganda talabalar yuqori ishtiyoq va diqqat bilan mashg'ulotlarda ishtirok etishadi. Yuqoridagi ta'kidlangan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, turli xil audiovizual materiallardan foydalanish orqali til o'qitish samarali va dinamik bo'ladi. Ko'rgazmali qurollarni tanlash va ulardan foydalanishda biz yangi tajribani o'tmishdagi tajriba bilan bog'laydigan bo'lsak, undan foydalanuvchilar tushunchasiga moslashimiz kerak. Audiovizual qo'llanmalar yangi materialni o'zlashtirish jarayonida talabalarni rag'batlantiradi va motivatsion katalizator bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, audiovizual materiallar ingliz tili o'qitish jarayonida samarali va innovatsion vosita sifatida qo'llash talabalarining til ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Audio-video fayllar, prezentatsiyalar va onlayn interaktiv platformalar yordamida talabalar tinglash, gapirish, o'qish va yozuv ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishlari mumkin. Shuningdek, audiovizual materiallar motivatsiyani oshiradi, madaniyatni o'rganishda yordam beradi

va darslarni yanada qiziqarli qiladi. O‘qituvchilar uchun usbu materiallar o‘quv jarayonini samarali tashkil qilishda muhim yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarori – Toshkent, 2021-yil, 19-may.

2. Ilkhamova I., Muradov U., Damirova G., Khudoyberdiyeva Z. [Methodology for developing competences of future foreign language teachers based on innovative technologies](#). The Bioscan, 2024. Pages 123-128.

3. Jalolov J., Mahkamova G., Ashurov Sh. English language teaching methodology: coursebook for students of specialized departments of the universities and institutes. Tashkent-2015. 334 p.

4. Kathirvel, K. and Hashim, H. (2020). The Use of Audio-Visual Materials as Strategies to Enhance Speaking Skills among ESL Young Learners. *Creative Education*, 11, 2599-2608.

5. Muradov U. [Enhancing the professional competence of English language teachers through digital technologies](#). Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. 2024. Pages:175-180.

6. Muradov U., Kadirova N., Ikramova R., Kuchkeldiyeva U. (2020). The Role of Motivation in Learning Foreign Language, *The American Journal of Social Science and Education Innovations* (ISSN – 2689-100x) Published, 14-21.

7. Natoli, C. (2011). *The Importance of Audio-Visual Materials in Teaching and Learning*.

8. Umar, F. (2014). *Audio Visual Aids in Education, Definition, Types and Objectives*. MIER University Press.